


		“Farmatsevtika va biotexnologiya” yo‘nalishi
T/r	Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
	Diabetik yara uchun fitobiogen yangi avlod lipofilik spreyi yaratish. 	Tadqiqot shakli: Amaliy Ilmiy-tadqiqot natijalari: -mahalliy o‘simlik va biologik kelib chiqishli bioaktiv birikmalar kimyoviy jihatdan GC-MS va FTIR usullari asosida tavsiflanadi va ularning regeneratsiya, angiogenez va antiseptik faollik bilan bog‘liqlik qonuniyatlari aniqlanadi; -diabetik oyoq yaralarga nisbatan yuqori regeneratsiyalovchi va yallig‘lanishga qarshi ta’sir ko‘rsatuvchi yangi avlod lipofilik sprej tarkibi ishlab chiqiladi; -yangi formulatsiyaning in vitro va in vivo sharoitda biologik faolligi baholanadi, jumladan fibroblast migratsiyasi (scratch assay), antimikrob ta’siri (agar diffuziya) va hujayraviy toksikligi (MTT testi) aniqlanadi; -tayyor mahsulotning farmatsevtik ko‘rsatkichlari, fizik-kimyoviy barqarorligi va saqlash sharoitlariga barqarorligi o‘rganiladi, tarkibni sanoat texnologiyasiga moslashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi; -ilmiy yangilik darajasiga ega, “RegenoSpray-D” lipofilik spreyni patentlash uchun tavsiya qilinadi va uni kichik hajmda tajriba-sanoat asosida ishlab chiqarish imkoniyati aniqlanadi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish: Olingan natijalar Farmatsevtika tarmog‘ini rivojlantirish agentligi hamda ilmiy-tadqiqot institutlarida sinovdan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida Farmatsevtika tarmog‘ini rivojlantirish agentligining xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish: Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar, o‘quv qo‘llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va <i>Web of Science/Scopus</i> ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi. Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Farmatsevtika tarmog‘ini rivojlantirish agentligining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.